

“O‘zkimyosanoat” AJ rahbariyati Gruziya portlarida transport-logistika hamkorligi imkoniyatlarini o‘rgandi

// 03.07.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-rahbariyati-gruziya-portlarida-transport-l>





O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Gruziyaga rasmiy tashrifi doirasida Gruziya Bosh vaziri Irakliy Kobaxidze bilan bo'lib o'tgan muzokarlarda transport-tranzit sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, mazkur yo'nalish salohiyatidan samarali foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalari diqqat markazda bo'ldi.

Xususan, mamlakatimiz yuklarini tashishda Poti va Batumi portlari infratuzilmasidan faol foydalanish choralariga alohida e'tibor qaratildi.

Prezident tomonidan belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston va Gruziya o'rtasidagi transport-logistika sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida **"O'zkimyosanoat" AJ Boshqaruvi rasi Poti va Batumi dengiz portlaridagi bir qator terminallarga tashrif buyurdi.**



Tashrif davomida port terminallarining mavjud imkoniyatlari, eksport yuklarini qabul qilish va qayta ishlash jarayonlari, logistika zanjirlarini takomillashtirish, yuk tashish samaradorligini oshirish hamda mahalliy korxonalar eksport hajmlarini ko'paytirish masalalari yuzasidan fikr almashildi. Shuningdek, Yevropa va Afrika mamlakatlari bozorlariga mahsulot yetkazib berishda Poti va Batumi portlarining transport-tranzit imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish, logistika jarayonlarini optimallashtirish va o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.



Ta'kidlash joiz, 2025-yilda Gruzija portlari orqali Yevropa va Afrika mamlakatlariga 220 ming tonnadan ortiq mahalliy mahsulot eksport qilingan.

Mazkur tashrif mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda xalqaro transport yo'laklaridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy ishlar izchil davom etayotganining yana bir ifodasidir.

